

**Komilov Foziljon Komil o'g'li***O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi 2 kurs magistranti***Nosirov E***Ilmiy rahbar: TDIU kafedra mudiri, dots.*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada investitsiya fondlarining iqtisodiy mazmuni, ularning turlari va har bir turga xos bo'lgan asosiy xususiyatlar tizimli tahlil qilingan. Investitsiya fondlari jamg'arma mablag'larni birlashtirish, ularni samarali yo'naltirish, risklarni diversifikatsiyalash va investorlar manfaatlarini muhofaza qilish kabi funksiyalarni bajaradi. Tadqiqotda fondlar boshqaruv shakli, investitsiya strategiyasi, aktiv tarkibi va geografik qamroviga qarab tasniflanib, ularning har biriga xos afzallik va cheklovlar yoritilgan. Shuningdek, ushbu fondlarning iqtisodiy taraqqiyotga qo'shayotgan hissasi, ularning shaffofligi, professional boshqaruvi va likvidlilik darajasi kabi muhim xususiyatlari ochib berilgan. Maqola natijalariga ko'ra, investitsiya fondlari kapital bozorining samaradorligini oshirishda va iqtisodiyotning barqaror o'sishida muhim moliyaviy vosita sifatida xizmat qilmoqda.*

**Kalit so'zlar:** *investitsiya fondlari, diversifikatsiya, kollektiv investitsiya, moliyaviy bozor, aktiv portfeli, risk boshqaruvi, fond turlari, shaffoflik, boshqaruv strategiyasi, iqtisodiy samaradorlik.*

**Abstract:** *This article systematically analyzes the economic essence of investment funds, their types, and the main characteristics specific to each type. Investment funds perform functions such as pooling savings, allocating them effectively, diversifying risks, and protecting investors' interests. The study classifies funds based on their management form, investment strategy, asset composition, and geographic coverage, highlighting the advantages and limitations inherent to each. Additionally, it reveals important features such as these funds' contribution to economic development, their transparency, professional management, and level of liquidity. According to the article's findings, investment funds serve as an important financial instrument in enhancing capital market efficiency and promoting sustainable economic growth.*

**Keywords:** *investment funds, diversification, collective investment, financial market, asset portfolio, risk management, fund types, transparency, management strategy, economic efficiency.*

## **KIRISH**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiya fondlari iqtisodiy tizimning muhim moliyaviy institutlaridan biri sifatida qaraladi. Ular aholining jamg'armalarini moliyaviy instrumentlar orqali qayta taqsimlab, iqtisodiy resurslarning samarali harakatini ta'minlaydi. Shu jihatdan, investitsiya fondlari turlari va ularning xususiyatlarini chuqur o'rghanish bugungi kundagi iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish,

moliyaviy vositalarning imkoniyatlarini baholash va sarmoya jalg etish mexanizmlarini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi global moliyaviy tizimda investitsiya fondlarining soni va ko'lami tobora ortib bormoqda. Bunda turli turdag'i fondlarning (o'zaro investitsiya fondlari, pensiya fondlari, indeks fondlari, xedj-fondlar va boshqalar) o'ziga xos funksiyalari, boshqaruv strategiyalari va investorlar bilan ishslash mexanizmlari mavjud. Mazkur fond turlarining o'zaro farqlari va o'xshash jihatlarini aniqlash, ularning iqtisodiy samaradorligini baholash ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'naliшlaridan biriga aylanmoqda.

Investitsiya fondlarini o'rganish aholining moliyaviy savodxonligini oshirish, ularni sarmoyaviy faoliyatga jalg etish hamda investitsiya xavfini kamaytirishga xizmat qiladi. Fondlar faoliyati orqali risklarni diversifikatsiya qilish, ya'ni sarmoyalarni turli soha va loyiҳalar o'rтasida taqsimlash orqali investitsiya xavfini kamaytirish mumkin. Shu bilan birga, fondlar investorlarning mablag'larini boshqarishda professionallik va institutsional yondashuvni ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan moliyaviy islohotlar, xususan, fond bozori infratuzilmasini rivojlantirish, xorijiy sarmoyalarni jalg etish va mahalliy investorlarga qulay muhit yaratish bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar investitsiya fondlariga bo'lgan talab va ehtiyojni oshirmoqda. Shuning uchun ham investitsiya fondlarining turlari va ularning iqtisodiy xususiyatlarini o'rganish, milliy moliyaviy bozor barqarorligi va uning xalqaro moliyaviy tizim bilan integratsiyasini kuchaytirishga zamin yaratadi.

Investitsiya fondlarining turlarini va ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish nafaqat ilmiy-nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim hisoblanadi. Bu boradagi tadqiqotlar orqali iqtisodiy o'sishning barqaror manbalarini aniqlash, sarmoyalarni samarali boshqarish tizimini shakllantirish va moliyaviy barqarorlikka erishish yo'lida muhim tavsiyalar ishlab chiqish mumkin bo'ladi.

Asosiy qism. Investitsiya fondlari — bu yuridik yoki jismoniy shaxslarning jamg'armalarini birlashtirib, ularni turli moliyaviy aktivlarga investitsiya qilish orqali daromad olishga yo'naltiriladigan institutsional investorlar shaklidir. Ular moliyaviy bozorning muhim subyektlari bo'lib, kapitalni qayta taqsimlash, risklarni diversifikatsiya qilish va investitsiya faoliyatini tartibga solishda muhim rol o'ynaydi. Investitsiya fondlari turli belgilarga ko'ra tasniflanadi. Quyida ularning asosiy turlari bayon etiladi:

### 1. Boshqaruv shakliga ko'ra investitsiya fondlari

- Faol boshqariladigan fondlar (actively managed funds) – bu fondlarda professional menejerlar aktivlar portfelini bozordagi vaziyatga qarab faol boshqaradi. Ular eng yuqori daromad olishga intiladi, ammo xarajatlar yuqori bo'lishi mumkin.

- Passiv boshqariladigan fondlar (passively managed funds) – ushbu fondlar muayyan indeks (masalan, S&P 500 yoki boshqa birja indeksi) dinamikasiga bog'lab boshqariladi. Xarajatlari kam, lekin daromad darajasi bozor o'sishiga bog'liq bo'ladi.

### 2. Investitsiya strategiyasiga ko'ra fondlar

• O'zaro investitsiya fondlari (mutual funds) – kichik investorlarning mablag'larini birlashtirib, aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa moliyaviy aktivlarga sarmoya kiritadi.

• Xedj-fondlar (hedge funds) – yuqori darajadagi risk bilan ishlovchi fondlar bo'lib, ularda murakkab moliyaviy instrumentlardan (derivativlar, qarzlar, valyuta bitimlari) foydalilanadi. Bu fondlar odatda yirik investorlar uchun mo'ljalangan.

• Indeks fondlari (index funds) – ma'lum bir fond birja indeksiga asoslanadi va undan og'ishmasdan sarmoya yuritadi. Ular passiv boshqaruvga ega va odatda xavfi kamroq bo'ladi.

• ETF – birjada sotiladigan fondlar (Exchange-Traded Funds) – indeksga asoslangan, biroq birjada aksiyalar kabi erkin sotilishi mumkin bo'lgan fond turlaridir.

### 3. Aktiv tarkibiga ko'ra tasnif

• Aksiyalar fondlari (equity funds) – sarmoyani asosan aksiyalarga yo'naltiradi. Bu fondlar yuqori daromad keltirishi mumkin, lekin risk darajasi ham yuqoriroq bo'ladi.

• Obligatsiya fondlari (bond funds) – davlat yoki korporativ obligatsiyalarga investitsiya qiladi. Ular barqaror daromadni ta'minlaydi, ammo o'sish potentsiali cheklangan.

• Aralash fondlar (balanced or hybrid funds) – aksiyalar va obligatsiyalarni birgalikda o'z ichiga olgan, xavf va daromad o'rtaqidagi muvozanatni saqlovchi fondlardir.

### 4. Investorlarga yo'naltirilganligiga ko'ra

• Ochiq turdag'i fondlar (open-end funds) – investorlar istalgan vaqtida fondga mablag' qo'shish yoki ulardan chiqish huquqiga ega.

• Yopiq turdag'i fondlar (closed-end funds) – belgilangan miqdordagi mablag' yig'iladi va u ma'lum muddatga yopiladi; investitsiyadan chiqish fond hissalarini birjada sotish orqali amalga oshiriladi.

### 5. Geografik yo'nalishiga ko'ra

• Ichki (mahalliy) fondlar – faqat o'z mamlakati ichidagi aktivlarga investitsiya qiladi.

• Xalqaro fondlar – bir nechta mamlakatlarda faoliyat yurituvchi kompaniyalar aksiyalariga investitsiya qiladi.

• Global fondlar – butun dunyo bo'ylab har qanday bozorda sarmoya kiritish huquqiga ega fondlardir.

Investitsiya fondlari zamonaviy moliyaviy tizimda muhim institutsional investorlar sifatida faoliyat yuritadi. Ular jamg'arma mablag'larini birlashtirib, ularni daromad keltiruvchi aktivlarga yo'naltirish orqali investorlar uchun xavfni kamaytirgan holda barqaror foyda olish imkonini yaratadi. Investitsiya fondlarining quyidagi asosiy xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

Nº	Xususiyat nomi	Tavsifi	Ilmiy ahamiyati
1	Kollektiv investitsiya	Bir nechta investorlarning	Kichik investorlar uchun moliyaviy

No	Xususiyat nomi	Tavsifi	Ilmiy ahamiyati
	shakli	mablag'lari birlashtirilib, yagona portfel shakllantiriladi	bozor imkoniyatlarini ochadi
2	Diversifikatsiyalangan portfel	Turli aktivlarga sarmoya kiritilishi orqali risklar kamaytiriladi	Investitsiya xavfini kamaytirish va barqaror daromad ta'minlash imkonini beradi
3	Professional boshqaruv	Moliyaviy menejerlar tomonidan portfel boshqaruvi amalga oshiriladi	Ilmiy asoslangan strategiyalar orqali daromad potentsiali oshiriladi
4	Shaffoflik regulyatsiya va	Moliyaviy hisobotlar, aktivlar tarkibi va boshqaruv qarorlari ochiq e'lon qilinadi	Investor ishonchini oshiradi va moliyaviy institatlarning ishonchliligini ta'minlaydi
5	Yuqori likvidlilik	Investorlar istalgan vaqtida fondga kirish va chiqish imkoniyatiga ega bo'lishi	Moliyaviy moslashuvchanlikni ta'minlaydi va kapital aylanishini tezlashtiradi
6	Xarajatlar tizimi	Fondni boshqarish uchun xizmat haqi va boshqa komissiyalar mavjud	Investitsiya samaradorligini tahlil qilishda xarajatlarning ta'sirini baholash zarur
7	Qonunchilik faoliyat asosida	Fondlar tegishli litsenziyalar asosida va regulyator organlar nazoratida ishlaydi	Moliyaviy barqarorlik va investor huquqlarining himoyasini ta'minlovchi huquqiy baza mavjudligi

Xulosa. Investitsiya fondlari zamonaviy moliyaviy tizimning ajralmas qismi bo'lib, kapitalni jamlash, uni samarali taqsimlash va iqtisodiyotni moliyalashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Ularning turlari – boshqaruv shakli, investitsiya strategiyasi, aktiv tarkibi, investor yo'nalishi va geografik qamrovi bo'yicha tasniflanishi – investorlarning ehtiyoj va talablariga mos sarmoya imkoniyatlarini yaratadi.

Har bir tur o'ziga xos tavakkalchilik darajasi, daromad potentsiali hamda boshqaruv mexanizmlariga ega bo'lib, bu holat fondlar tanlovida chuqur tahlil va strategik yondashuvni talab qiladi.

Investitsiya fondlarining asosiy xususiyatlari — kollektivlik, diversifikatsiya, professional boshqaruv, shaffoflik, yuqori likvidlilik va qonuniylik — ularni ommaviy va ishonchli investitsiya vositasiga aylantiradi.

Ayniqsa, kichik investorlar uchun murakkab moliyaviy bozorlarga kirish imkonini berishi, fondlarni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda strategik vosita sifatida ko'rishga asos bo'ladi.

Shu bois, investitsiya fondlari faoliyatini yanada rivojlantirish, ularning huquqiy asoslarini takomillashtirish va aholining moliyaviy savodxonligini oshirish iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolishi lozim.

Mazkur yo'nalishda olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar, amaliy mexanizmlarning ishlab chiqilishi va davlat siyosatining qo'llab-quvvatlovi fondlar bozorining barqarorligini va jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Назаров Ш.Ш., Юнусов А.А. Инвестицион фаолият асослари. – Т.: Иқтисод-фарғона, 2021. – 284 б.
2. Тошқулов Ш.Ш. Инвестициялар ва лойиҳа молиялаштириш. – Т.: Fan va texnologiya, 2020. – 336 б.
3. Karimov M.A., Ergashev M.A. Investitsiyalarni boshqarish. – Т.: Iqtisodiyot, 2019. – 240 b.
4. Ҳошимов Б.Х. Молия бозорлари ва инвестиция институтлари. – Т.: “Iqtisodiyot va moliya”, 2022. – 198 б.
5. Шаропов Қ.Ш. Бозор иқтисодиёти назарияси. – Т.: “Iqtisodiyot”, 2021. – 344 б.
6. Reilly, F.K., & Brown, K.C. Investment Analysis and Portfolio Management. – Cengage Learning, 2019. – 760 p.
7. Bodie, Z., Kane, A., & Marcus, A.J. Investments. – 11th Edition. – McGraw-Hill Education, 2020. – 1080 p.
8. OECD. Institutional Investors and Long-term Investment. – OECD Publishing, 2021.  
<https://www.oecd.org/finance/private-pensions/institutionalinvestors.htm>
9. The World Bank. Global Financial Development Report: Financial Inclusion. – The World Bank, 2022. <https://www.worldbank.org>